

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova</b> Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
<b>A.K.Ergashev</b> Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
<b>R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova</b> O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

---

ILMIY AXBOROT

<b>D.I.Ibragimova</b> Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
<b>Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova</b> Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish .....	293
<b>A.A.Ergashev</b> Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi .....	298
<b>I.Rustamov</b> Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli .....	302
<b>M.Nasritdinova</b> Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....	306
<b>M.V.Nasridinov</b> Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni .....	310
<b>G.O.Shaxbazova</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	315
<b>N.N.Norxo'jayeva</b> Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
<b>D.R.Ismoilova</b> Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni .....	322
<b>D.B.Toshpo'latova</b> Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
<b>М.Ф.Рахмоналиева</b> Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
<b>M.F.Adasheva</b> Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	336
<b>U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva</b> O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli .....	340
<b>M.A.Abdujalilova</b> Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes .....	348
<b>U.T.Isakov</b> O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
<b>U.U.Xolova</b> Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf .....	356
<b>T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov</b> O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari .....	360
<b>Y.Y.Turakulov</b> Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K: 41+406

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "MAQSAD" KONSEPTINING MORFOLOGIK SATHLARARO VERBALIZATORLARI STRUKTURAL-SEMANTIK TURLARI MAYDONI****MORPHOLOGICAL INTER-LEVEL VERBALIZERS OF THE CONCEPT "GOAL" IN ENGLISH AND UZBEK****МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ МЕЖУРОВНЕВЫЕ ВЕРБАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПТА «ЦЕЛЬ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****Nasridinov Muxridin Vaslidin o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti Ingliz filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv lingvistika sohasi haqida ma'lumot beriladi. Turli tizimli tillar ingliz va o'zbek tillarida "maqsad" konseptini voqelantiruvchi til birliklari sathlararo qiyoslanadi va ularning maydon tabiati qiyosiy tadqiq qilinadi. Maqsad konsepti maydonida yotuvchi til birliklari turli adabiyotlardan tahlilga tortilgan misollar orqali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, uning til birliklari til sathlarida misollar orqali atroflicha tadqiq etiladi va xulosalanadi. Tahlilda ingliz va o'zbek tillarida maqsad konseptining izomorfik va allomorfik jihatlari ochib beriladi.

**Abstract**

This article provides information about the field of cognitive linguistics, which is one of the important areas of modern linguistics. Language units that realize the concept of "goal" in different systematic languages, English and Uzbek, are compared at different levels and their field nature is comparatively studied. Language units in the field of the concept of purpose are considered through examples from different literature. At the same time, its language units are thoroughly researched and summarized through examples at language levels. The analysis reveals isomorphic and allomorphic aspects of the concept of purpose in English and Uzbek languages.

**Аннотация**

В данной статье представлена информация об области когнитивной лингвистики, которая является одним из важных направлений современной лингвистики. Языковые единицы, реализующие понятие «цель» в разных системных языках – английском и узбекском, сопоставляются на разных уровнях и сравнительно изучается их полевая природа. Языковые единицы в области понятия цели рассматриваются на примерах из различной литературы. В то же время его языковые единицы тщательно исследуются и обобщаются на примерах на языковых уровнях. В результате анализа выявляются изоморфные и алломорфные аспекты концепта цели в английском и узбекском языках.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, konsept, "maqsad" konsepti, "maqsad" lingvokognitiv maydoni, morfema, leksema, frazeologizm, tekstema, soda gap, qo'shma gap.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, концепт, концепт «цель», лингвокогнитивное поле «цель», морфема, лексема, фразеология, текст, простое предложение, сложное предложение.

**Key words:** cognitive linguistics, concept, concept of "goal", lingvocognitive field of "goal", morpheme, lexeme, phraseologism, texteme, simple sentence, compose sentence.

**KIRISH**

Kognitologiya turli fan sohalari chorrahasida yuzaga kelgan fandır va uning tadqiqot sohasi "bilimni to'plash va qo'llash usullarini tadqiq qilish" sifatida belgilanadi (The Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology 1990). Amerikalik psixolog H.Gardner kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun'iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo'llanishi muammolari yechimini izlash bilan band bo'lishini qayd qilgan edi.[3.69]

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma qobig'ida olib borilayotgan turli tizimli ilmiy izlanishlar soni tobora ortib bormoqda. Buning boisi shuki, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda til birliklarining struktural-semantik qurilishi, ularning kundalik muloqotda kommunikativ-pragmatik

## ILMIY AXBOROT

jihtdan ongli qo'llanishi va eng muhimi - u yoki bu til jamoasi vakillari bo'lmish sotsiuslar muloqotining to'laqonli kechishida, qolaversa, muloqotdek bir murakkab jarayonga daxldor bir qator lingvokognitiv va lingvokulturologik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar berishda aynan tilda so'zlashuvchi, yozuvchi inson omilining roli beqiyos ekanligi, shuningdek, bu omilga doimo asosiy e'tiborni qaratish lingvokognitiv tahlilning qat'iy tamoyillaridan biri ekanligi soha tadqiqotchilari tomonidan bevosita tan olinib, unga og'ishmay, qat'iy amal qilib kelinayotganligidadir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Qiyoslanayotgan zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida "maqsad" konsepti va uni voqelantiruvchi til vositalarini lingvokognitiv hamda lingvokulturologik jihatdan tizimli tadqiq qilish uchun "maqsad" konsepti maydonini tizimli taxlilga tortish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, tilshunoslikdagi "maydon" tushunchasiga biroz to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Bu nazaryaning paydo bo'lishi asrimizning 20-30 yillariga to'g'ri kelib, u V.Gumboltning "tilning ichki shakli" xususidagi ta'limotini qayta yangi yo'nalishda ko'rib chiqilishi bilan bog'lanadi. Bu davrda uzoq davom etgan lisoniy tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lgan "tilning ichki shakli sifatidagi ilmiy bahslar ushbu nazaryaning dunyoga kelishi uchun asos bo'ldi. [2.30]

"Mazmuniy maydon" termini o'sha paytlarda tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlandi. I.Trir mazmuniy maydon sifatida "tushunchalar maydoni", "tushunchalar darasi" ni nazarda tutdi. L.Vaysgerber "til mazmunining ma'lum qismi", "tarkibning bo'lagi", V.Porsig "ma'nolarning mohiyatan bog'liqligi", T.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog'langan guruhini semantik maydon tarzida talqin etadi. A.Yolles esa uni "semantik birlashish" deb nomlab, uning doirasida antonomik juftliklarni belgilaydi. F.Dornzayf va V.Vartburglar til lug'aviy tarkibi ajralish mumkin bo'lgan semantik guruhlarida mazmuniy maydonni ko'radilar.[5.36]

Yuqoridgi tadqiqotchilar semantik maydon atamasini har xil tarzda izohlashlariga qaramay, ularni semasiologik tadqiqotlar asosi bo'lgan, "tilning ichki shakli"ni tushinishda tilni hr tomonlama va turlicha munosabatlarda o'rganishlari bilan birlashtirish mumkin.

V.Gumbolt ning "ichki shakl talimoti"ni L.Vaysgerber, va I.Trir, tushunchaviy mohiyati jihatidan G.Ipsin va V.Porsig so'zlarining mazmuniy guruhi hamda sistemasi tomonidan F.Dornzayf va V.Vartburg esa tilning lug'at tarkibiga xos predmetlik va tushunchalar guruhi nuqtai nazardan rivojlantirdilar. [1.23]

Tilshunoslikda "maydon" tushunchasining uzil- kesil shakllantirishiga yordam bergan hal qiluvchi tadqiqotlaridan biri L.Vaysgerber ning ishlari bo'ldi. Vaysgerber fikricha, tilni ruhiy mazmunning oddiy vositasi sifatid emas balki dunyoni intellektual shakli sifatida o'rganish zarur, uningcha, semasiologiya ma'nolar xususidagi fan bo'lmay, tushunchalar haqidagi ta'limot bo'lishi kerak.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Yuqorida ta'kidlanganidek, tilshunoslikda maydon nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p tadqiqotlar mavjud bo'lib ularning mualliflari maydonning mohiyatini turlicha talqin etdilar. Bu ishlarni kelib chiqqan holda, Yu.N.Karaulov maydonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi:

- a) maydon elementlarining o'zaro aloqasi: bunda elementlarning mazmuniy o'zshashligi, mazmuniy munosabatdorligi (semantik korrelyasiyasi) obyektga bo'lgan munosabati nazarda tutildi;
- b) maydon elementlarining belgilanishi bir – biriga nisbatan farqlari asosida bazan bu xususiyat o'zaro almashinish sifatida ham tariflanadi;
- c) mazmuniy maydonlarning mustaqilligi (yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqadi);
- d) turli tillarda maydon xususiyatlarining o'ziga xosligi (tarixiy tarkibi, milliy jihatlari).

Demak, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyekti sanaladigan "konsept" nazariyasi rivojlanib, tobora sayqal topib bormoqda. Shu ma'noda olganda, boshqa konseptlar qatori "maqsad" konsepti ham o'ziga xos lingvokognitiv asosga va lingvokulturologik tavsif hamda tasnifga davogar bo'lgan mental voqelikdir.

Quyida biz "maqsad" konseptini ifodalovchi, ya'ni voqelantiruvchi sathlararo til birliklarining har birini empirik misollar asosida ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Eng avvalo har bir til birligining qaysi bo'limda o'rganilishi, ta'rifi va vazifasi bilan tanishib chiqsak:

**1.Morfema.** Morfemika so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Bu kichik qismlar tilshunoslikda morfemalar deyiladi. Masalan, rejadagilarimizga so'zi paxta-da -gi -lar -imiz

-ga qismlaridan iborat. Bu qismlar turli xil soʻzlar tarkibida qatnashib, oʻziga xos maʼnolarni ifodalaydi. Bu qismlar yana boʻlinadigan boʻlsa, uning maʼnosi yoʻqoladi. Shunday ekan, morfema soʻzning eng kichik maʼnoli qismidir.

Ingliz tilida morfemaga berilgan taʼrif ham oʻzbek tilida berilgan taʼrifga yaqin. Morfema tildagi eng kichik maʼnoli til birligi hisoblanadi. Morfema soʻz bilan bir xil emas. Ular orasidagi farq shundaki, morfema oʻz xolicha qoʻllanila olmaydi, lekin soʻz qoʻllanila oladi. Morfemalar morfologiya da oʻrganiladi. Morfemalar yakka holda ishlatilsa, oʻzak morfemalar (root morphemes), agar ular boshqa morfemalardan maʼno jihatdan tobe boʻlsa, bular (affixitional morphemes) affiksial morfemalar hisoblanadi. Misol uchun, dog (root morpheme), dogs (affixitional morpheme). Chunki affiksial morfema grammatik vazifani bajarmoqda, yaʼni dogs soʻzida koʻplik shaklini yasamoqda. Har bir soʻz bir yoki bir necha morfemalardan tashkil topadi.

Oʻzbek tilida morfemalar maʼno va vazifasiga koʻra 2 xil boʻladi:

- a) Oʻzak morfema
- b) Affiksial morfema

Oʻzak morfema soʻzning leksik maʼnosini bildiruvchi asosiy qism boʻlib, qoʻshimchalar shu oʻzak bilan birgalikda qoʻllanadi. Shunga koʻra, oʻzak morfema asosiy morfema deb ham yuritiladi. Oʻzak morfema soʻz yasaliishi uchun ham, shakl yasaliishi uchun ham asos hisoblanadi. U soʻzning semantik yadrosini tashkil etadi. Masalan, maqsadli, maqsadsiz kabi soʻzlarda maqsad - soʻz yasaliishi uchun ham, shakl yasaliishi uchun ham asos hisoblanadi. U soʻzning semantik yadrosini tashkil etadi. Oʻzak morfema yasama boʻlmaydi, u faqat tub boʻladi.

Affiksial morfema deb, qoʻshimcha mustaqil qoʻllanmaydigan, bogʻliq holda, oʻzakka qoʻshilib keladigan, oʻzakning leksik -grammatik xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan har xil maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemaga aytiladi. Affiksial morfema ergash yoki yordamchi morfema deb ham ataladi. Masalan, gulchi soʻzidagi -chi qoʻshimchasi gullarning bir turi maʼnosiga shu gul bilan shugʻullanuvchi shaxs belgisini qoʻshadi.

Affiksial morfema oʻz oʻrnida soʻz yasovchi qoʻshimchalar hamda shakl yasovchi qoʻshimchalarga boʻlinadi.

Oʻzak morfemalar: a) soʻz yasovchi: oʻzbek tilida: maqsadli (sifat) Misol uchun, Maqsadli qabul 3 toifa abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi. [33] (Targeted admission is carried out at the expense of 3 categories of applicants), ingliz tilida, purposeful, It is only in the past 20 years that this data has been gathered in any purposeful way. (Faqatgina soʻnggi 20 yil ichida ushbu maʼlumotlar har qanday maqsadga muvofiq tarzda toʻplangan).

Misol uchun, plan (root morpheme), plans (affixitional morpheme). Chunki affiksial morfema grammatik vazifani bajarmoqda, yaʼni plans soʻzida koʻplik shaklini yasamoqda. Har bir soʻz bir yoki bir necha morfemalardan tashkil topadi. Quyida "maqsad" konsepti maydonida qoʻllaniladigan oʻzak morfemalarni affiksial morfemalar bilan birga koʻrib chiqamiz:

№	Oʻzak morfema	Affiksial morfema	Root morpheme	Affixitional morpheme
1	Maqsad	Maqsadsiz, maqsadli, bemaqsad	Purpose	Purposeless, purposeful, purposefully, purposefulness
2	Tilak	Tilaksiz, tilakli, tilakdosh	Wish	Wishful, wishfully, wishfulness
3	Niyat	Niyatsiz, niyatli	Intent	Intentness, intently
4	Reja	Rejasiz, rejali	Plan	Planless
5	Istak	Istaksiz, istakli,	Desire	Desirous
6	Orzu	Orzumand, orzusiz, orzuli, orzubaxsh	Dream	Dreamy, dreamful, dreamless, dreamfully
7	Murod	Murodbaxsh	Goal	Goalless
8	Muddao	Muddaosiz, muddaoli	Target	Targetable
9	Iddao	Iddaosiz, Iddaoli	Claim	Claimable
10	Ilinj	Noilinj, ilinjsiz,	intention	Intentional, intentionality
11	Xohish	Xoxishsiz	Ambition	Ambitionless
12	Umid	Umidsiz, umidbaxsh,	Hope	Hopeless, hopeful,

## ILMIY AXBOROT

	umidli, noumid		hopefulness
--	----------------	--	-------------

Umidsizlik (ot) “Umidsizlik — halokat,— deb o’ylardi u.” Aynan shu misol ingliz tilida: Disappointment “Disappointment is a disaster, he thought” [11.35]. Tilak , (ot) “Tilak bo’lsa, bilak chidaydi.” (There will be a wish, the wrist will bend) [“O’zbek xalq maqollari”], istak (ot) “Saltanatda bu istak bo’lgandan keyin, uni onasi bilan katta onasi bilmay qoladimi? Onasi bilan katta onasi Zebini yomon ko’radilarmi?” (When he has this desire in the kingdom, will he not be known by his mother and grandmother? Do her mother and grandmother hate Zebi?)

Umidlanmoq (fe’l) “Qizlar Qurvonbibining bu tadbiridan xursand bo’lib, yana umid-lana boshlagan edilar”. (The girls were happy and excited about the event) [47] Dreamled (verb) “Then he dreamed that he was in the village on his bed and there was a norther and he was very cold and his right arm was asleep because his head had rested on it instead of a pillow” (Keyin u tushida ko’rdi: u qishloqda yotog’ida, shimollik bor va u juda sovuq edi va o’ng qo’li uxlab yotgan edi, chunki boshi yostiq o’rniga yotgan edi).[46]“Rejalashtirmoq (fe’l) Islomxo’ja yo’llarni tuzatish, temir ko’priklar qurdirish ishlarini rejalashtirdi.” (Islamkhoja planned to repair roads and build iron bridges).

Yuqorida ta’riflab o’tgan o’zak va affikal morfemalarga yanada kengroq ko’rib chiqadigan bo’lsak, o’zbek tilida morfemalar o’zakka ketma-ket, biri orqasidan ikkinchisi qo’shiladi. Misol uchun, *maqsad’sizlar’ning*; ingliz tilida esa farqlidir, masalan, *aimed men’s*. So’zni morfemik tarkibga ajratish oxirgi morfemani belgilab olishdan boshlanadi va ketma-ket tarzda o’zak morfemani belgilash bilan tugallanadi. O’zak morfema so’zda albatga ishtirok etadigan, leksik ma’noni beruvchi qismdir. O’zak morfema yangi so’z yasaliishi uchun ham shakl yasaliishi uchun ham asos bo’la oladi. Masalan, maqsadli, maqsadsiz, noumid kabi tarkibli so’zlarda “maqsad” va “umid” so’z yasaliishi uchun asos bo’lsa; maqsadni, maqsadimiz, maqsadlar tarkibli so’zlarda maqsad shakl yasaliishi uchun asos bo’ladi. Ingliz tilida so’z yasovchi qo’shimchalar *aimless, aimful, purposeful, purposeless* kabi so’z tarkibiga qo’shilsa shakl yasovchi qo’shimchalarning ko’pi alohida so’z oldida keladi. Misol uchun: *with purpose, by purpose* and so on.

O’zak morfema ifoda etilishiga ko’ra so’zga o’xshaydi, ular ma’no jihatidan o’zaro bog’langan bo’lishini aytib o’tdik, lekin o’zakni so’zning tarkibiga kiruvchi morfema sifatida so’z bilan tenglashtirib bo’lmaydi, chunki har qanday so’z boshqa so’zga morfema maqomida kirsam, u so’zlik maqomini yo’qotadi.

So’z tarkibida affikal morfemalar bir nechta bo’lishi mumkin. Ular o’zbek tilida o’zakka birin-ketin, ma’lum tartibda qo’shiladi. Masalan, umidsizlikdan - umid/-siz + lik -/-dan-mi-kin-a??? .Affikal morfemaning ma’nosi har bir konkret so’z tarkibi asosida belgilanadi, har bir qo’llanishda u konkret ma’no ifodalaydi. Masalan, maqsad-siz, umid-siz, no-umid, murod-baxsh, maqsad-im kabi so’z tarkiblarida affikal morfemalardan (u xoh so’z yasovchi, xoh shakl yasovchi bo’lsin) o’ziga xos aniq ma’nolarda kelgan, ular bir-biriga butunlay teng emas.

Misol uchun, “umid” so’zi no-, -li, -siz, -baxsh, -lik kabi qo’shimchalar bilan ishlatiladi. Har bir qo’shimcha o’zi yakka qo’llanilmasada lekin o’zak morfemaga ma’no kasb etadi. Masalan,

no- Bu affiks ham otlarga qo’shib, yasash asosidan anglashilgan narsaning butunlay mavjud emasligini ifoda etadi: no\umid Lekin maqsad,tilak, reja, murod, muddao kabi so’zlar bilan qo’llanilmaydi.

-li affikal morfema biror narsa mavjudligini ko’rsatadigan qo’shimchadir. Masalan, maqsad/li- biron ish harakat ortida qandaydir maqsad yotadigan, chiroy/li- chiroyi bor, bilim/li- bilimga ega kabi ma’nolarni beradi. Bundan tashqari, umid, niyat, orzu kabi so’zlar bilan -li qo’shimchasini qo’llay olamiz.

-siz qo’shimchasi biror narsa mavjud emasligini yoki yo’qligini ko’rsatuvchi qo’shimchadir. Misol uchun, maqsadsiz- maqsad yo’q, uysiz-uyi yo’q, jonsiz-joni yo’q kabi ma’nolarda ishlatiladi. maqsad so’ziga ma’lum ma’noda ma’nodosh so’zlar umid, tilak, orzu kabi so’zlar ham -siz qo’shimchasi bilan qo’llanila oladi. Umidsiz, tilaksiz, orzusiz kabi. Ingliz tilida -less qo’shimchasiga teng keladi. Misol uchun, *aimless, purposeless*,

Keyingi qo’shimcha -baxsh . Yasash asosini yo’q narsaga muyassar qilmoq, yo’q narsa bn ta’minlamoq, ato qilmoq bag’ishlamoq kabi qo’shimcha ma’nolarni ifodalagan xolda sifat hosil qiladi. Misol uchun, umidbaxsh- biron holatga muyassar qiluvchi, murodbaxsh- belgilangan ma’lum marraga eltuvchi, hayotbaxsh- yashashga muyassar etuvchi kabi ma’nolarda qo’llaniladi.

-lik qo'shimchasi ko'proq otlik xususiyatini ifodalaydi. Masalan, umidsizlik, ilinjsizlik, kabi so'zlarda otni yasamoqda.

O'zbek tilidagi –lik qo'shimchasi ingliz tilida –ness qo'shimchasiga mos keladi chunki unda ham otlik xususiyati mavjudligi. Masalan, aimlessness-maqsadsizlik.

#### XULOSA

“Maqsad” konsepti doirasini mukammal tarzda ko'rsatishda, “maqsad maydoni”ni yaratish, u maydon qanday qisimlardan iboratligini, ularning hajmi, va shu kabi manbalarni ifodalash oldimizdagi muhim vazifalardan biri desak xato bo'lmaydi. Maqsad kategoriyasi va uni voqealanishi til qurilishining deyarli barcha sathlarida uchraydi va ularni yuqoridagi turli xil misollar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu misollar bizga shuni ko'rsatadiki, ularning majmuasi tillarda maqsad konseptni voqelantiruvchi maxsus verbal vositalar tizimini tashkil etadi. Qiyoslanayotgan “maqsad” konseptining ingliz va o'zbek tillarida ifodalovchi til vositalari shuni ko'rsatadiki, ular semantikasiga ko'ra, o'xshash bo'lsalar ham, strukturasi ko'ra butunlay farqlanadilar, chunki, har bir til o'ziga xos struktural jihatlarga ega.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov G.M. Ziyayev. A. “Интенсификация-деинтификация” konseptual semantikasi verbalizatorlarining kognitiv tipologiyasi. Far.Du. Ilmiy xabarlar. 4- 2017.
2. Irisqulov M.T., Tilshunoslikka kirish, Toshkent, O'qituvchi, 1992
3. "Jane Eyre" by Charlotta Brante. Retold by Florence Bell.
4. Jumaniyoz Sharipov. “Xorazm” (roman). www.Ziyouz.com kutubxonasi.
5. Kubryakova Y.S. konsept//Y.S. Kubryakova, V.Z. Demyankov, Y.G. Pankras, L.G.Luzina
6. “Лингвистический энциклопедический” словарь. М. Советская энциклопедия.1990.380с.
7. Maslova V.A. когнитивная лингвистика.Учебное пособие. Тетрасистема 2008(22с).